

O'ZBEKISTON VA XITOIY O'RTASIDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY ALOQALAR

Ne'matov Boburmirzo Bohodir o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303-guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi, ikki davlat o'rtasida tuzilgan shartnomalar, iqtisodiy, siyosiy, diplomatik aloqalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: diplomatik aloqalar, Xitoy Xalq Respublikasi, Xu Szintao, qo'shma deklaratsiya, Parlament delegatsiyalari, strategik sheriklik, Chjao Letszi, Si Szinpin, "Henan Suda"

Abstract: This article describes the establishment of diplomatic relations between Uzbekistan and China, agreements concluded between the two countries, economic, political and diplomatic relations.

Key words: diplomatic relations, People's Republic of China, Hu Jintao, joint declaration, Parliamentary delegations, strategic partnership, Zhao Lezhi, Xi Jinping, "Henan Suda"

1991-yil Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini tan olib 1992-yil diplomatik munosabatlari o'rnatilgach, ikki mamlakat o'rtasida teng huquqli aloqalar o'rnatila boshladi. 1991-2004-yillar davomida ikki davlat o'rtasida 100 dan ortiq rasmiy hujjatlar imzolandi. 1992-yil 15-oktabrda Toshkentda Xitoy Xalq Respublikasi elchixonasi, 1995-yil 6-mayda Pekinda O'zbekiston elchixonasi ochildi. Shu davr davomida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov 4 marta (1992, 1994, 1999, 2001-yil) rasmiy tashrif bilan Xitoyda bo'ldi. Ilk bor rasmiy tashrif bilan 1995-yil O'zbekistonga Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi boshlig'i Li Pen tashrif buyurgan. Xitoy Xalq Respublikasi raisi Szyan Szemin (1996) va uning o'rnini egallagan Xu Szintao (2004)lar ham rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldilar. Xu Szintao Xitoy Xalq Respublikasi raisining o'rinbosari sifatida 1995-yilda ham O'zbekistonda bo'lgan. Bundan tashqari, o'tgan davr davomida ikki davlat tashqi ishlar vazirlari, Vazirlar Mahkamasi rahbar xodimlari, Parlament delegatsiyalari o'zaro tashriflari amalga oshirildi. 1994-yilda ikki mamlakat o'rtasida tuzilgan savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya doimiy faoliyat ko'rsatib kelgan. Xu Szintaoning 2004-yil iyundagi O'zbekiston Respublikasiga tashrifi chog'ida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida sheriklik munosabatlari, do'stlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash to'g'risida qo'shma deklaratsiya,

shuningdek, narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqununiy aylanishi va suiiste'mol etilishiga qarshi kurashda xamkorlik qilishga, texnikaviy-iqtisodiy hamkorlikka oid bitimlar imzolandi. 2003-yil ikki tomon tovar ayirboshlash hajmi 216 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. Shundan O'zbekistonning Xitoyga qilgan eksporti 53 mln., importi 163 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro aloqalar mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida boshlangan bo'lsa-da, 2017-yil 12-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga tashrifi ushbu mamlakat bilan o'zaro hamkorlikning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu tashrif natijasida ikki davlat o'rtasida har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarila boshladi. 2017-2024 yillar oralig'ida O'zbekiston Prezidenti bir necha bor davlat tashrifini amalga oshirdi va bir qancha xalqaro tadbirlar doirasida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi bilan samarali muloqotlari bo'lib o'tdi.

2023-yildan e'tiboran Xitoy O'zbekistonning eng yirik tashqi savdo sherigi bo'lishga muvaffaq bo'ldi. Tomonlar 14 milliard dollarga yetgan mushtarak savdo hajmini kelgusi yillarda 20 milliard dollarga chiqarishni rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yildagi ilk xorijiy tashrifini 23-25-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirdi. Prezident Mirziyoyev Xitoyga bo'lgan davlat tashrifi chog'ida poytaxt Pekinda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo'mitasi Raisi Chjao Letszi va Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi Bosh vaziri Li Syan bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Yig'ilishda Toshkent shahrida Xitoy Eksim-bankingning Markaziy Osiyo filialini (eksport-import) ochish to'g'risida qaror qabul qilindi. Davlat rahbarlari Si Szinpin va Shavkat Mirziyoyev ikki davlat o'rtasida har tomonlama strategik hamkorlikni yo'lga qo'yishga kelishib oldilar. Muzokaralar natijasida O'zbekiston va Xitoy o'rtasida 15 ta shartnoma imzolandi. Eslatib o'tish joizki, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yilning may oyida ham Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida 41 ta shartnoma imzolangan edi.

Prezident Mirziyoyev keyin esa Shenchjenshahriga borib u yerda Xitoy - O'zbekiston sarmoyaviy forumida ishtirok etdi. Tashrif doirasida Shavkat Mirziyoyev Xitoyning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan alohida - alohida uchrashuvlar o'tkazdi. Prezident Mirziyoyev ishtirokida O'zbekistonning Jizzax viloyatida Xitoyning BYD kompaniyasi tomonidan gibrid va elektromobillar ishlab chiqariladigan zavodning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. O'tgan yilning dekabr oyida O'zbekiston Xitoyning "Henan Suda" kompaniyasi bilan 2033-yilgacha butun mamlakat bo'ylab 50 mingta elektr zaryadlovchi stansiya qurish bo'yicha shartnoma imzolagan edi. Xitoyning O'zbekistonga kiritgan sarmoyasi 14 milliard dollardan oshdi. Ushbu tashrif davomida Pekin shahrida Xitoy-O'zbekiston ta'lim forumi bo'lib

o'tdi. Forumda ikki davlatdan 147 ta universitet rektorlari ishtirok etdi. Forumda Xitoy-O'zbekiston universitetlari uyushmasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston - Xitoy munosabatlari eng yuqori darajada. Ikki tomonlama aloqalar energetika, sanoat, transport, savdo, qishloq xo'jaligi, ta'lim kabi turli sohalarda jadal rivojlanmoqda. Voqealar rivojiga nazar tashlaydigan bo'lsak O'zbekiston-Xitoy munosabatlarining yanada rivojlanishini, Prezident Mirziyoyevning Xitoyga bo'lgan davlat tashrifining samarali o'tganini aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T: O'qituvchi. 1994.
2. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li. T: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
3. Sul'tonov F. Qadimgi dunyo tarixi. T: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2012.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat" to'g'risida (yangi tahriri)gi qonuni. 26.05.2000 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va savdo savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish choratadbirlari" to'g'risidagi PF-5643-sonli farmoni 28.01.2019 yil